

DARSLARDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Maftuna Hazratqulova Nurali qizi

Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar

2-son kasb-hunar maktabi Informatika va AT fani o'qtuvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada darslarda multimediali vositalardan foydalanishning ahamiyati, bunda multimedianing afzalliklari va unda uchraydigan muammolar to'g'risida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *multimedia, vosita, axborot, interaktiv, dastur, dars, muammo, innovatsiya, ta'lim, tarbiya, vosita, kompyuter.*

Ta'lim tizimini zamonaviy axborot va kommunikatsion texnologiyalarining usul va vositalarini keng miqyosda joriy etish va takomillashtirish natijasida ta'lim muammolarini, shu jumladan o'quv-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini intensivlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanuvchilar, informatika va hisoblash texnikasi, dasturiy ta'minot sohasida mutaxassislar tayyorlash, o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kabi bir qator muammolarni hal etish mumkin bo'ladi. Ta'lim tizimida ayniqsa multimedia vositalarining ahamiyati katta hisoblanadi.

Multimediy vositalari (multimedia – ko'pvositalilik) - bu insonga o'zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutk, musika, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy maxsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompakt disklar, televizor, videomagnitafon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;

- muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prosessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ (tezkor) va



video-xotira katta sig'imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

- "inson-kompyuter" interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'iladi? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (ob'yektlarining fazodagi xarakati) effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan xoldagi ko'rinishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning bu usuli, hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tatbiq, qilinmoqda. Xatto, har bir oila multimedia vositalarisiz xordiq, chiqarmaydigan bo'lib qoldi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 % gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 % ortadi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

a) berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

g) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Ta'limda multimedia vositalaridan foydalanishning umumiy bo'lgan birmuncha salbiy taraflari ham mavjud. Ular jumlasiga diqqatning bo'linishi,



materiallarni yaratishdagi murakkabliklar, vaqtning ko‘proq talab etilishi, dasturiy ta‘minot va texnika vositalarini sozlash va foydalanishda vujudga keladigan muammolar, axborotlarni kompyuter ekranidan o‘qish jarayonidagi qiyinchiliklar va boshqa jihatlar kiradi.

Diqqatning bo‘linishi. Multimedia vositalarida taqdim etilayotgan katta hajmdagi ma‘lumotlar, turli havola (ссылка) va shu kabilar dars jarayonida o‘quvchi diqqatini bo‘lishi mumkin.

O‘quv materiallarini yaratishdagi murakkabliklar. Multimedia vositalarining audio, video, grafik va boshqa elementlarini yaratish an‘anaviy matn ko‘rinishidagi materiallarni yaratishdan ancha murakkab.

Vaqtning ko‘proq talab etilishi. Multimediali materiallarni mustaqil ishda yaratish singari multimedialdan ta‘lim oluvchi sifatida foydalanish ham birmuncha ko‘proq vaqt sarflanishini talab etadi. Ayniqsa, multimediali ta‘lim vositalarini yaratish uchun ko‘p vaqt va diqqat kerak bo‘ladi.

Dasturiy ta‘minot va texnika vositalarini sozlash va foydalanishda vujudga keladigan muammolar. Multimediali ta‘lim vositalaridan samarali foydalanishni ta‘minlash uchun dasturiy ta‘minot va texnika vositalari talab darajasida sozlangan bo‘lishi zurrur. Bunda multimediali ta‘lim materiallarini taqdim etish jarayoni matnlarni tahrirlash va aks ettirishning oddiy vositalariga qaraganda yanada yuqori sifat va keng imkoniyatlar talab etadi.

Axborotlarni kompyuter ekranidan o‘qish jarayonidagi qiyinchiliklar. Kompyuter ekranidan axborotlarni o‘qish qog‘ozga chop etilgan axborotlarni o‘qishga qaraganda noqulayroq. To‘liq o‘qib chiqishni talab etadigan katta hajmdagi matnli axborotlarni, shuningdek, gazeta, kitob va jurnallarni qog‘ozda chop etilgan variantda o‘qish birmuncha qulay. Aksariyat hollarda multimedia vositalarida zarur axborotlarni topish va uni qog‘ozga chop etib olish uchun ma‘lumotlarni qidirish quroli taqdim etiladi.

Xulosa o‘rnida, hozirgi paytda ta‘limga axborot texnologiyalarini jadal tatbiq etish, ta‘lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish yetakchi pedagogik- uslubiy g‘oyaga aylangani hammaga ma‘lum. Shunday ekan ta‘lim jarayonida o‘qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish, elektron o‘quv kurslarini yaratish va tashkil qilish har bir soha vakillari uchun dolzarb vazifalardan biri bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Umarov “Zamonaviy kutubxona qanday bo‘lishi kerak?”
2. Xolmatov T.X., Toyloqov N.I., Nazarov U.A. Informatika
3. Aripov M.M. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari.
4. www.ziyouz.com

